

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI



FRANSUZ TILI FONETIKASI VA GRAMMATIKASI KAFEDRASI
FAYZULLAEVA GULBADAN

R E F E R A T

ATOQLI OTLAR ISHTIROKIDAGI FRAZEOLOGIK
BIRLIKLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar : f.f.n. Suvonova N.N.

Samarqand – 2014

ATOQLI OTLAR ISHTIROKIDAGI FBLARNING LINGVISTIK TAVSIFI

1. Atoqli ot va ularning FBlarda qo'llanilish xususiyatlari

Ot mustaqil so'z turkumlaridan biri bo'lib u aniq va mavhum, atoqli – turdosh, jonli – jonsizkabi bir qancha semantik – Grammatik guruhlariga bo'linadi. Ushbu guruhlar orasidan biz atoqli va turdosh otlar guruhini atroflicha o'rganib chiqamiz. Atoqli va turdosh bir guruh bo'lsada aslida ular ikki alohida tushunchalardir. Turdosh otlar ma'lum turga mansub, aniq bir tushunchaga ega so'zlar bo'lsalar, atoqli otlar aksincha aniq bir tushunchaga ega emaslar. Turdosh otlar har doim kichik harflarda, atoqli otlar esa bosh harflarda yoziladi. (Lekin ba'zan ushbu qoidadan mustasno holatlar ham uchray turadi).

Odatda atoqli otlar hech qachan ko'plik qo'shimchasini olmaydi, ya'ni ular birlikda qo'llaniladi;

la France – les Frances (bo'lmaydi),

Lekin agar atoqli ot biror bir ma'noni ifodalasa ya'ni u ma'lum bir otga aloqador bo'lsa u holda ko'plik qo'shimchasi qo'llaniladi. Masalan:

Les Dupont viendront diner.

Bunda Dupont so'zi yakka shahsni emas balki shahslarni ifodalaydi (Dupontlar oilasini). Atoqli ot ko'plik qo'shimchasi "s"ni olmasada, lekin o'zining artiklini va harakatini ifodalovchi fe'lini ko'plikda kelishini talab qiladi. Biron bir davlatda yoki region yoki shaharchada yashovchilarni ko'rsatadigan atoqli otlar rod va sonda moslashadilar. Masalan:

un Breton – une Bretonne; Des Bretons – des Bretonnes. Shu yerda biz anashu atoqli otlarning qiziq bir qirrasini ko'rishimiz mumkin, ya'ni biz so'z ham sifat ham ot bo'lib kela olishini ko'ramiz. Masalan:

Les paysans bretons sont tetus – sifat

Les Bretons sont tetus – atoqli ot

Agar biz yuqoridagi misolga o'xshash so'zlarni uchratsak ularni bir –biridan ajratishda atoqli otlarning bosh harf bilan yozish qoidasidan foydalanishimiz zarur.

Atoqli va turdosh otlarda determinativlarning qo'llanilish xususiyatlari.

Odatda turdosh otlar determinantlarsiz qo'llanila olmaydi, atoqli otlarda esa bu majburiy emas.

Mon chien est parti (mening itim ketdi)

Medor est parti (Medor (itim) ketdi)

Ba'zan Grammatik qurilmalar ichida turdosh otlar ham hech bir determinativlarsiz qo'llanila oladi. Masalan:

Hs marchait avec peine

Hs ont achete des fauteuils en cuir

Atoqli otlar bilan keladigan determinativlar orasida artikl alohida qo'llanilish xususiyatiga ega .

Artikllar odatda geografik nomlar bo'lmish shahar va davlat nomlari oldidan qo'yiladi. Masalan:

la France, le Danube, l'Australie kabi (lekin ba'zi bir davlat va shahar nomlari artiklsiz ham qo'llanila oladi. Masalan: Cuba, Haiti, Paris, Londres kabi). Atoqli otlar artikl bilan qo'llanilishida bir necha xususiyatlarga ega. Bular quyidagilar:

- a) Bir necha o'ziga xos xususiyatlarni tanlab olgan oz'gartuvchini ko'zda tutadigan shahsni ifodalaydi:

le grand Baudelaire, le Baudelaire des Fleurs du Mal.

- b) Bir qancha region (viloyat) larning shevaga xos so'zlarida va og'zaki nutq qatnashgan asarlarda atoqli otlar artikl bilan qo'llaniladi:

la Sophie, le Duchemin.

- c) Atoqli otlar biron bir obyekt bilan metonimik munosabatda bo'la oladi. Masalan: Elle avait achete trois superbes Picasso (bunda u Pikassoni emas balki uning uch asarini sotib olganligi haqida, ya'ni rassom nomi asarlariga ko'chgan).

La sculpture un Apollon (unerepresentation d')

(Bunda u Apolloni emas balki uning tasvirini yaratgan xolos).

Bunday metonimik o'xshatishlar natijasida atoqli ot turdosh otga aylanishi ham mumkin:

du Bordeaux, de l'Alsace (duvin de)

(Bunda Bordo va Alzas viloyatlarida yetishtiriladigan vinolar nazarda tutilmoqda)
du Limoges (de la porcelaine de)
(bunda Limoj chinnisozligi nazarda tutilmoqda).

d) Ba'zan otli sintagmalar oila a'zolarini yoki shu bir xil nom bilan bog'liq shahslar jamlanmasini ifodalaydi: tous les Martin de l'annuaire
(martinlar oilasining ma'lumotnomasi)

e) Atoqli otlar shahslarning biron bir turi yoki tipi (ko'rinishini) ifodalashda foydalaniladi:
cet homme est un Don Juan.
(Bu bir Don Juan)(Bunda bir ayollarga suyagi yo'q kishiga nisbatan berilgan o'xshatishni ko'ramiz).

Atoqli otlarning determinativlar bilan birga kelishi o'ziga yarasha buyruq va effektiv ma'no bor: Bunda ba'zan erkalash, ba'zan ajratib ko'rsatish kabi ma'nolar shu determinativ orqali namoyon bo'ladi:

La Marie a encore battu son fils.(ajratib ko'rsatish) (Ayoli (rafiqasi) o'g'lini yana urdi).

Mon Pierre est arrive le premier . (erkalash) (Mening Pyerim birinchi bo'lib keldi)
Turdosh otlarning bosh harflar bilan yozilishida simbolik (ramziy) bo'yoq mavjuddir.
Liberte, j'ecris ton nom. L'Etat, l'Eglise (catholique et romaine)
(Bunda cherkov (l'Eglise) so'zi katolik va romanlar so'zlarining ramziy bo'yog'idir).

Atoqli otlar haqida olimlar qarashlari.

V.G.Gak «Teoreticheskayagrammatikafransuzkogoyazyka» asarida atoqli va turdosh otlarga quyidagicha ta'rif beriladi: "Otlar buyumlarning turlarini ifodalaydi: Agarda har bir buyum uchun atoqli ot talab qilinganda edi til mavjud bo'lmagan bo'lar edi".

Biroq, tilde o'ziga xos tushunchalar bor – Atoqli otlar.Ammo ushbu otlar turdosh otlar ega bo'lgan xususiyatlarga, ya'ni artikl ishlatilishidagi, son kategoriyasiga ega emas. Shuning uchun atoqli otlar ot so'z turkumining preferek turiga mansub. Atoqli va turdosh orasidagi oniy holati alohida obyekttni ifodalaydigan

alohida ismlar (noms uniques) ni tashkil etadi ular yana artikl, son, aniqlovchilarini o'ziga xos ishlatilishini ifodalaydi.

Antik davrdan buyon atoqli otga filosoflarning nazariy yondashuvi to'xtagan emas, lekin faqatgina XX asrda nazariyotchilar atoqli otlarga onomastika nuqtai nazaridan yondashdilar. Shu bilan birga lingvistlar atoqli otlarga grammatika chaegasida bo'lgan imkoniyatdan kelib chiqib ahyon – ahyonda to'xtalib o'tdilar xolos. Endi bu kabi qarashlar birdan o'zgardi. So'nggi yillarda atoqli otlar psixolingvestika va nerolingvistika xos yo'nalishlarda ham chuqur o'rganilmoqda. Mashhur olim Gary –Prieur atoqli otlarga quyidagicha ta'rif bergan: “Atoqli otlar to'laligicha lingerstik analizlarga (tahlillarga) bog'liqdir”. Semenza (1997: 116) qarashlariga binoan, atoqli otlar juda muhim guruh hisoblanadi. Chunki ularda ijtimoiy sabablar mavjud emas va a'la semantik sohadagi o'ziga xos vaziyatda yuzaga keladi yana ular atoqli va turdosh otlar orasidagi kognitif munosabatni miyamizda taqqoslagan holda aniqlangan jarayonlarni ochib tashlaydi. Lui Gebert o'zining “Atoqli otlar semantikasining fundamental nazariyalari” asarida. (Fondaments theoriques de la semantique du nome propre). Barcha turdagi atoqli otlar to'rt xil semaga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bular: spesefik, mikro, makro va mexo – jenerik (usul) semalar. Buni bir “Achille”(Ahil) so'zi misolida ko'ramiz: 1) makrojenerik (insonga xos/ erkak jins). 2) mezojenerik (mifologiyaga oid) 3) mikrojenerik (grek (yunon) qahramoni (ilohi))4) spesefik (eng yosh (kelishgan, baquvvat)).

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki atoqli ot so'z turkumining preferek guruhiga mansub va o'ziga yarasha xususiyatlarga ega.

Ishlatilish xususiyatiga ko'ra tahlil

T/r	Guruh nomi (Frazeologik iboralar)	Misollar
1	She'riyatga oid	<i>arbre d'Apollon – dafna, palma</i> <i>les champs de Mars – urush maydoni</i>
2	Mifologiyaga oid	<i>avoir des yeux d'Argus – hamma narsani ko'ruvchi.</i> <i>Fidele Achate – sodiq do'st</i>

3	Hazil va mutoyibaga oid	<i>Il a ete a Saint – Malo, les chiens lui ont mangi les os – U juda ozg'in.</i>
4	So'zlashuv uslubiga xos	<i>Saucisson de Bolonge – pakana</i> <i>Tour de Babel – shovqin suron</i>
5	Bibliografiyaga oid	<i>Giron de l'Eglise – din yo'li</i> <i>Vivre autant que Mathusalim – uzoq umr ko'rmoq</i>
6	Ironiyaga oid	<i>Benediction de Saint – Roch – so'kish</i> <i>La Maison du Roi – turmaxona</i>
7	Argolar	<i>Marchand d'eau de Javel – traktorchi</i> <i>Prix de Diane – go'zal qiz</i> <i>Fourchette d'Adam – barmoqlar</i>
8	Kasb hunar jargonlari	<i>Champ de Mars – o'quv maydoni(harbiy)</i> <i>La Grande Ganache – kulgili chol (teatr)</i>
9	Tarixiy so'zlar va arxaizmlar	<i>Empire d'Orient – Vizantiya imperiyasi</i> <i>Tenir les Etats – Gneral Shtat turmoq</i> <i>Demoiselles des Marais – odobsiz qizlar</i>
10	Xalq tilida ishlatiladigan oddiy f.i.	<i>Mouton de Berry – o'zidan oldin burni ko'rinadigan odam</i> <i>Dame Jeanne – ulkan shisha</i>

Struktur tahlil

Guruhlar nomlar		
Bir atoqli otli f.i.	Ikki atoqli otli f.i.	Uch atoqli otli f.i.
Oissau de Jupiter – burgut Boir le Styx – o'lmoq Suppot de Satan – shaytonning malayi	a)ot+ot (N+N) Paul et Pierre – har bir uchragan kimsa	

	Tomber de Charybde en Seylla – suvdan qutilib o'tga tutilmoq	
	b)ot+sifat (N+adj) saint (e) c'est Saint – Roch et son chien – Bu ajralmas do'stlar la nacelle de Saint – Pierre – Rim katolik cherkovi	
	Grand (e) Le Grand Moteur – Xudo Grande Arme'e – Napoleon armiyasi	
	d)turdosh ot+ atoqli ot (N _{commun} + N _{propre}) les Filles de Memoires – muzalar les Filles de France – Fransiya qirolining qonuniy qizlari Fils aine de l'Enlise – Fransiya qiroli	

	La maison du Roi - turmaxona	
--	---------------------------------	--

Alohida olingan atoqli otning etimologik tahlili

T/r	Ot (so'z)	Misollar
1	Apollon She'riyat va soflik poklik ramzi	<i>Disciples (enfants, fils) d'Apollon – shoirlar</i> <i>Les suivants d'Apollon – Apollon xizmatchilari, shoirlar</i> <i>Arbre d'Apollon – dafna, palma daraxti</i>
2	Argus (hushyorlik ramzi)	<i>Avoir des yeux d'Argus – Hamma narsani ko'ruvchi, juda xushyor kishi</i>
3	Diane (go'zallik, iffatlilik)	<i>Prix de Diane – go'zal, suluv qiz</i>
4	Eumenides (qahrli yovuz ayol ramzi)	<i>Arbre des Eumenides – kedr (nina bargli daraxt)</i>
5	Muses (ilhom parilari – ilhom bag'ishlovchi manba)	<i>Commerce des Muses – ilhom parilari bilan ishlash</i> <i>Boire a la fontaine des Muses – she'riyat bilan shug'ullanmoq</i>
6	Hercule (Heracles) (juda ulkan ko'z ko'rib quloq eshitmagan, kuch quvvat egasi ramzi)	<i>Travaux d'Hercule – gerkulesning 12 jasorati</i> <i>Arbre d'Hercule – terak</i> <i>Chemise d'Hercule – halokatga etuvchi hadya</i> <i>Taille en Hercule – atletik mashqlar</i>

Semantik tahlil

T/r	F/i. turlari nomlari	Misollar	Foizi	Jami
1	Shahs nomlari	Prix de Diane – suluv go’zal qiz Pied de Cendrillon – bejirim oyoqcha	60%	
2	“Dieu” so’zi bilan bog’liq nomlar	A Dieu neplaise – Xudo saqlasin Ennemi de Dieu – kofir Bras (main) de Dieu – Xudo (Yaratganning) yozmishi, taqdir	15%	
3	Shahar va davlat nomlari	Paris ne s’est pas fait en un jour – Oz-oz o’rganib dono bo’lur, Qatra – qatra yig’ilib daryo bo’lur Oncle d’Amerique – uzoq qarindosh	9%	
4	Geografik nomlar	L’ogre de Corse – korsika maxluqi (Napoleon Bonapart) Femme de Quartier – talaba mahbubasi	6%	
5	Astronomik nomlar	Enfant de Mars – g’alaba erkatoysi Empire de Pluton – do’zax, jahannam Arbre de Jupiter – eman	4%	
6	Bayram nomlari	Bon homme Noel – Qorbobo Long comme d’ici a Paques – uzundan – uzoq, juda uzoq	4%	
7	Hayvon va qushlar nomlari	Coq d’Inde – gerdaygan kimsa Les fils de la Loive bo’ri bolalari(Romul va Rim)	2%	

Atoqli ot ishtirokidagi FBlarning morfologik tahlili

Morfologiya – grekcha soʻzdan olingan boʻlib, morphe – shakl va logos – taʼlimot maʼnosini anglatadi va soʻzlarning morfologik tuzilishini, Grammatik shakllar yasashda morfemalarning bir – biriga boʻlgan munosabatlarini, joylashish qonunlarini, paradigma yasovchi shakllarning oʻzaro oppozitsiyalarini hamda soʻz turkumlari va ularning maʼnosini oʻrganadi. Xullas morfologiya – soʻz haqidagi Grammatik taʼlimotdir. Shu nuqtai nazardan fransuz tilidagi atoqli otli frazeologik iboralarni ham tahlil qilishimiz mumkin. Yuqorida aytganimizdek soʻz turkumlari – morfologiyaning asosiy oʻrganiladigan obyektlaridan biridir. Bizning tahlilimizda ham ayon shu obyekt yaʼni mustaqil soʻz turkumlari – ot, sifat, feʼl asos qilib olindi va ular atrofida frazeologik iboralar paradigmasi jamlandi.

Ot soʻz turkumiga xos atoqli otli frazeologik iboralar.

Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek ot nominativlik funksiyasiga ega mustaqil maʼnoli soʻzdir yaʼni mustaqil soʻz turkumlaridan biridir. U shahs va narsa – buyum, oʻrin – joy maʼnolarini bildirib Kim? Nima? Qayer? Soʻroqlariga javob beruvchi soʻzlar majmuidir. Biz frazeologik iboralarga soʻroq berganda ulardagi biron bir soʻzga emas, balki butun bir iboraga soʻroq beramiz chunki maʼno butunligi birgina soʻz bilan emas, butun bir birikma bilan anglashiladi. Misollar:

le fils de l'Homme – (kim? Qui?) buyuk odamning oʻgʻli

fille de Baal – ishratvoz xotin (kim? Qui?)

baton de Jacob – sehrgar tayoqchasi? (nima? Qui est-ce-que-c'est?)

abre des Enmenides – kedr (nima?)

les ecuries d'Augias – juda iflos joy (qayer? Qu)

les champs de Bellone – urush maydoni (qayer?)

Sifat turkumiga xos atoqli otli frazeologik iboralar.

Morfologik tahlilimizning ikkinchi guruhi bevosita sifatlar bilan bogʻliqdir.

Sifatlar oʻzlarining semantik maʼnosini, grammatik shakllari va sintaktik funksiyalari bilan ajralib turuvchi mustaqil soʻz turkumidir. Sifatlarning semantik mohiyati ularning ot belgisini koʻrsatish orqali namoyon boʻladi. Sifatlar qanday?

Qanaqa? So'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar majmuidir. Biz ham ushbu guruhga qanday? Qanaqa? So'roqlariga javob bo'luvchi atoqli otli frazeologik iboralarni jamlaganmiz. Misollar:

saucisson de Bolonge – pakana, bo'yi past (kimsa)

Paul et Jaques (Pierre) – har qanday uchragan

couleur Bismark – sariq, to'q malla

ennemi de Dieu – xudosiz, kofir

sainte Nitouche – tegma nozik, jizzaki

abruti de Chaillot – qo'pol to'nka, befahm

ce sont les vignes de Courtille – usti yaltiroq, ichi qaltiroq.

Fe'l so'z turkumiga xos atoqli otli frazeologik iboralar.

Fe'l so'z turkumi ham mustaqil so'z turkumlaridan biri bo'lib, u gapning asosi bo'lmish kesimni ifodalaydi. Fe'l o'z ma'nosini, Grammatik formalari va sintaktik funksiyalari bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Fe'l ish harakatni, mavjudlikni va munosabatni zamon nuqtai nazardan aniqlagan holda jarayon tarzda voqelik bilan bog'laydi. Aynan ana shu xususiyati bilan fe'l undan yasalgan otdan farq qiladi. Fe'lning morfologik kategoriyalari uning umumiy ma'nosi va sintaktik funksiyalari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Mayl, zamon, nisbat; shaxs-son fe'lning morfologik kategoriyalaridir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki hatto atoqli otli frazeologik iboralarda ham fe'lga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Frazeologik iborada asosan: *faire, aller, boir, etre, croire, avoir* kabi fe'llar boshqalariga nisbatan ko'proq uchraydi.

Fe'lli frazeologik iboralar.

Quyida biz ushbu fe'llar ishtirokidagi atoqli otli frazeologik iboralarni keltiramiz. fe'l ishtirokida.

faire le coup du pere Francois – bo'g'ib o'ldirmoq

faire suer Themis – qonunni chetlab o'tmoq

faire Quasimodo avant Paques – to'ydan oldin farzand ko'rmoq

faire le Palais – sudda ishlamoq

faire le Gascon – maqtanmoq

faire a Dieu barbe de feurre – dindan chiqarib olinmoq

se faire d'Eglise – ilohiy martaba (nom) olmoq.

fe'li ishtirokida.

aller a Canossa – o'zini xo'rliklarga duchor qilmoq

aller au Bois – Bo'lon o'rmoniga sayohatga yuborish

aller (bien)comme le Pont – Neuf – o'zini juda yaxshi his etish

aller comme un Basque – juda tez yugurmoq

aller a Cornouailles – xotin qo'ymoq, ajrashmoq

aller au chemin de Niort – inkor qilmoq, tonmoq

fe'li ishtirokida/

avoir une figure de Christ – xafa bo'lmoq, g'amgin ko'rinmoq

avoir l'air de revenir de pantoise – dovdiramoq

avoir des nerf a Berlin – g'azabga kelmoq

avoir bu de l'eau du Ze'the – parishonhotir bo'lib qolmoq, esi past bo'lib qolmoq

fe'li ishtirokida

n'etre pas (sorti)de la cote d'Adam – taniqli bo'lmagan kelib chiqishdan bo'lmoq.

etre dans les bras de Morphee – uxlammoq

etre brouille avec l'Hotel des Monnaes – bir chaqaga arzimas bo'lmoq

etre plus catolique que le Pape – Papadan ham ortiqroq katolik (dindor) bo'lmoq.

fe'li ishtirokida.

boire des eaux de l'Hippoc rine - she'riyat bilan
boire a la fontaine des Muses shug'ullanmoq' }

boire le Styx – o'lmoq

fe'li ishtirokida.

devoir a Dieu et a diable } qarzga botmoq, turgan
devoir a Dieu et au monde } bitgani qarz bo'lmoq
devoir au tiers et au quart }
devoir de tous cote's }
devoir une bonne chandelle a Saint – Matkurin – o'zida bo'lmaslik,
aqlidan ozmoq.

fe'li ishtirokida.

ne croire ni a Dieu ni a diable – Xudosiz, kofir
se croire (sorti)de la cote d'Adam – haddan
se croire (sorti)de la cuisse de Jupiter tashqari

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki atoqli otli frazeologik iboralarni morfologik tahlil qilishda biz so'z turkumlariga suvandik va tahlil jarayonida biz uch guruhga ot, sifat va fe'l guruhiga xos atoqli otli frazeologik iboralar guruhlariga ajratdik.

T/r	Guruh nomi	Misollar
1.	Otli frazeologik iboralar	<i>Le fils de l'Homme</i> – Buyuk odam o'gli <i>Baton de Jacof</i> – sehrgar tayoqchasi
2.	Sifatli frazeologik iboralar	<i>Abruti de Chaillot</i> – qo'pol, befahm
3.	Fe'lli frazeologik iboralar	<i>Aller au chemin de Niort</i> –tnmoq <i>Boire le Styx</i> –o'lmoq

2.2. Atoqli otlar ishtirokidagi FBlar polisemiyasi

Til bilan fikr orasida o'zaro jipslik, uzviy aloqa, bo'lgani kabi inson tafakkuri til, so'z, tushuncha o'rtasida ham uzviy bog'lanish mavjud. Har qanday so'z avvalo, etimologik, dastlabki ma'noga egadir. Shu etimologik dastlabki ma'no ayni paytda so'zning (bosh) asosiy ma'nosi hamdir. Lotin tilidan o'tgan aksariyat so'zlar hozir

ham asosiy ma'noga ega. Biroq asrlar davomida so'zlarning asosiy ma'nolari unutilib, yasama (ko'chma) ma'nolarga ega bo'lishi ham mumkin. Fransuz tilining kundalik iste'molida foydalanadigan leksikaning aksariyati ko'p ma'nolidir. Ko'p ma'nolilik – polisemiya ayrim so'zning ma'lum bir davrda bir qancha ma'nolarga ega bo'la olishidir. Umumiy xislatga ega bo'lgan bir qancha dalillarni bir qancha narsalarni ko'rsata oladigan so'z ayni paytda bir qancha ma'noga ham ega bo'la oladi. Polisemiya haqiqiy borliq (reallik) dalillarini ongimizda umumlashtirish qobiliyatini ochiqdan – ochiq aks ettiradi. Fransuz tilida ko'p ma'nolilik asosan, fe'llarga va ot so'z turkumiga xos xususiyatdir, bu faktni, sintetik tuzumdagi tillar bilan taqqoslaganda ya'ni hozirgi fransuz tilida, flektiv tillar tuzilishidagi kabi yasovchi elementlarning kamchiligi bilan isbot qilish mumkin. bir necha ma'noga ega bo'lgan har qanday so'z kontekstda aniq bir yagona ma'noga ega bo'ladi. Bunga monosemiya – bir ma'nolilik deyiladi.

Bir ma'nolik va ko'p ma'nolilik faqatgina oddiy so'zlarga xos bo'lib qolmasdan, balki biz tadqiqot olib borayotgan atoqli otli frazeologik iboralarga ham xos xususiyatdir. Ushbu shakldagi iboralarga asosan bir, ikki, uch va to'rt ma'noli frazeologik iboralar ko'zga tashlanadi.

Bir ma'noli atoqli otli frazeologik iboralar.

Monosemantik xususiyatga ega bo'lgan atoqli otli frazeologik iboralar fransuz frazeologik lug'atining asosiy qismini tashkil etadi.

Bir ma'noli atoqli otli frazeologik iboralarga misollar:

les enfants de la France – fransuzlar,

faire le coup du pere Francois – dimiqtirib, bo'g'ib o'ldirmoq,

demoiselles des Marais – odobsiz qizlar,

femme des Quartier – talaba mahbubasi,

le Celeste Empire – osmondagi imperiya (Xitoy)

chanson du Pont – Neuf – ko'cha ashulasi,

faize suer Themis – qonunni chetlab o'tmoq,

Coq d'Inde – induk, gerdaygan fahmi kalta odam,

le quart d'Leure de Nogi – urushning so'nggi daqiqalari,
batard de Caux – kenja o'g'il.

Ikki ma'noli atoqli otli frazeologik iboralar.

Ikki ma'noli frazeologik iboralar polisemantik xususiyatga ega bo'lgan iboralar safiga kiradi. Ushbu guruhga mansub frazeologik iboralar birinchi guruhga mansub frazeologik iboralarsoniga qaraganda bir oz kamroqdir. So'zlarning ikkinchi yasama ma'nosi hosil bo'lishida asosan ularning ishlatilish o'rne va xususiyati ya'ni joy (makon) faktori sabab bo'ladi. Asosan ikkinchi (yasama) ma'no harbiy jargonlarda, so'zlashuv nutqiga xoslikda, she'riyatga xos iboralarda hamda ironiyalarda namoyon bo'ladi. Lekin shuni unutmasligimiz lozimki so'zning bir ma'nosi so'zlashuv nutqiga xos bo'lsa, ikkinchi ma'nosi esa og'zaki nutqqa yoki ironiyaga xos bo'lishi ham mumkin. Bunda frazeologik ibora boshqa – boshqa bir-biriga unchalik ham yaqin bo'lmagan ikki ma'noni ifodalaydi. Misollar:

Tarixiy so'zlashuv nutqiga xos

cour des Miracles - a) (tarixiy so'z) Parijdagi kambag'allar xizmat joyi, makoni.
b) (so'zlashuv) gadoyxona

la Grande Ganache – a) (teatr jargoni) kulgili chol roli
b) (so'zlashuv) qariya, qarilik.

She'riyatga xoslik.

abre de Venus – poetik she'riyatga oid a) mitra (xushbo'y oq gulli doim yashil buta o'simlik).
b) lipa, arg'uvon daraxti.

abre d'Apollon – she'riyatga oid a) dafna o'simligi
b) palma daraxti.

So'zlashuv nutqiga xoslik.

le bon Dieu – a) tortiq, sovg'a, zakovat
b) muqaddas hadya, iste'dod.

Cadet de Normandie – a) kichik o'g'il
b) qorni och kimsa

Ironiyaga xoslik.

que le bon Dieu le benisse! a) ha, Xudo uni rag'batlantiradi.

b) ha, Xudo u bilan

c'est (un)Saint – Jean Bouche d'Or a) u har doim o'ylaganini gapiradi

b) u vaysaqi kamtar emas

la Maison du Roi a) davlat ishxonasi

b) turmaxona

Uch ma'noli atoqli otli frazeologik iboralar.

Ushbu guruhga kiruvchi iboralar ham polisemantik xususiyatga ega. So'z ma'nosining o'zgarishiga asosan uch faktor – joy, vaqt va ijtimoiy faktorlar sabab bo'ladi. Chunki xuddi shu bir xil frazeologik ibora bir holatda boshqa bir ma'noni, ikkinchi holatda boshqa va uchinchi holatlarda esa butunlay o'zgacha mazmunni anglatishi mumkin. Ko'pincha so'z ma'nosining, frazeologik ibora ma'nosining ikki yoki uch karra o'zgarishiga o'rin joy ya'ni makon faktori sabab bo'ladi va shu o'zgacha ma'no kelib chiqadi. Misollar:

Dieu vous (soit en)aide! a) Xudo madadkor

Dieu vous assiste! b) sog' bo'ling

a. Xudo bersin, Xudodan qaytsin.

Dernier a Dieu – (aslida ushbu ibora so'zlashuv nutqiga xos bo'lsada, uning tarixiy va eskirgizgan so'zlar (arxaizmlar) ga xos xususiyatlari ham semantic nuqtai nazardan va ishlatilish o'rniga nisbatan ham ko'zga tashlanadi).

a) Haqiqiy bitimdan oldin to'lanadigan qo'shimcha to'lov

b) Choychaqa, choy puli

c) Bay puli

To'rt ma'noli frazeologik iboralar.

Bizga ma'lumki atoqli otli frazeologik iboralarda Xudo (Dieu) so'zi bilan bog'liq ko'plab frazeologik iboralar mavjud. Ular orasida to'rt ma'noli iboralar ham borligi kuzatuvlarimiz natijasida ma'lum bo'ldi. Bu kabi polisemik

xususiyatli frazeologik iboralar inson nutqini boyitishga xizmat qilishi shubhasiz. Ma'nolarning ko'payishiga asosan uch mustahkam faktor makon, zamon va ijtimoiy faktorlar sababdir. Har bir faktorda so'z ma'nosi yana bir bor sayqallanadi. Misol:

manger (le bon)Dieu

- a) muqaddas suv bilan yuvish marosimida qatnashmoq

b) ibodat qilmoq

c) juda dindor bo'lmoq

d) (yuqoridagi uch ma'noda ham bir o'xshashlik mavjud, ya'ni ular so'zlashuv nutqiga xosdir. To'rtinchi ma'no esa aksincha jamiyatdagi ma'lum ijtimoiy guruhga mansub jargon-argodir). Kechki ovqat yemoq.

Ushbu tahlilimizga xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, polisemiya hodisasi nutqimiz yanada ravon va chiroyli bo'lishi uchun juda zarur til hodisasidir.

FBlarda afsonaviy qahramonlar obrazi

Har qanday til birikmalarida mifologik qahramonlar bo'lganidek, frazeologik birliklarda ham ular o'z mustahkam o'rinlariga ega. «Ko'plab yunon va roman tillarida afsonalarda uchraydigan qahramonlar hozirgi zamonaviy fransuz tilida ulardan frazeologik iboralar va ajralmas birikmalar yaratilgandir. Ya'ni ushbu afsonaviy qahramonlar frazeologik iboralarga kirib olgan, biz ularning ma'nosini bilamiz, ammo ularning kelib chiqishini biro z unutib qo'yganmiz». Hozirgi fransuz frazeologiyasida Axil(Achille), Augias(Avge), Gerkules(Herkule), Xaribd(Charybde), Morfe(Morpkee), Appolon kabi afsonaviy qahramonlar ishtirokidagi iboralarga ko'zimiz tushadi. Quyida biz shu kabi morfologik qahramonlarning nomi qatnashgan frazeologik iboralarning etimologiyasiga ya'ni kelib chiqish tarixiga to'xtalib o'tamiz.

Ze talon d'Achille—zaif nuqta.

Axil–“Illiada” dostonining afsonaviy qahramonlaridan biri bo’lgan. U qirol Pele va dengiz ma’budasi Tetis(The’tis) farzandi ham edi. Riviyatlarga ko’ra uning onasi, dengiz ilohasi Tetis, farzandi Axilni himoya qilish va kelajakda hech qanday qurol unga zarar yetkaza olmasligi uchun uni jahannam (Enfers) daryosiga tovonidan ushlab botirib oladi. Lekin onasining aynan ana shu xatosi tufayli Axil janglardan barida yengiladi. Chunki Froya shahzodasi Paris uning bu zaif nuqtasini topadi va kmon o’qi bilan uni o’ldiradi. Shundan buyon insonlardagi biror bir zaif nuqta yoki joyni ifodalash uchun Fransiyada “talon d’Achille” (Axil taloni) frazeologik iborasidan foydalaniladi.

Nettoyer les e’curies d’Augias–Avgi otxona (milxona)sini tozalomoq.

les e’curies d’Augias–juda iflos joy. Avgi ham yana bir afsonaviy grek qahramoni bo’lib ularni o’z molxonasida saqlar edi. Lekin u hech qachon o’z molxonalarini tozalamas edi, natijada chor–atrofdagi yig’ilib qolgan go’ngning badbo’y hidi tarqab ketadi. Shunda osmon ma’budlari Gerkules (Hercule)ni yordamga chaqiradi. Gerkules ham osmon ma’budlaridan biri bo’lib, u buton olamga o’zining 12 jasorati bilan mashhur edi. Uning 5–jasorati aynan mana shu Avgi(Augias) molxonasini tozalash edi. U ushbu iflos joyni tozalsh uchun ya’ni 5–sinovdan yaxshi o’tish uchun, otxona devoridan bir tuynuk ochadi va o’z yo’nalishini o’zgartirgan ikki daryo–Alfe(l’Alphee) va Pene(le Penee)ni otxona tomonga boshqarib yuboradi va natijada barcha iflosliklar yuvilib ketadi. Shu tufayli juda iflos joy hisoblanmish Avgi otxonasi tozalanadi.

Ushbu iborani etimologik tahlil qilish jarayonida ya’ni uning etimologiyasini bilganimizdan so’ng, u tartibsizlik hukmron joyda qayta tartib o’rnatish, ya’ni korrupsiyaga qarshi yo’naltirilgan ishlarni anglatishini bilamiz. Ya’ni bunda “nettoyer”–fe’lining asl ma’nosi “tozalamoq”, “artmoq” bo’lsada, ushbu iborada u ifloslikni emas balki buzuqlik, yaramaslik kabi yomon illatlarni odamlar orasidan supurib tashlashni ifodalaydi. “les e’curies d’Augias”–birikmasinng tarjimasi, Avgi otxonalari, bo’lishiga qaramasdan u korrupsiya va shunga o’xshash yaramas illatlar hukmron joyni ko’rsatib turibdi. Bundan ko’rinib turibdiki les e’curies d’Augias–

frazeologik iborasining etimologik kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasi uning semantikasi bilan qandaydir bog'liqligi bor.

Jouer les Cassandre–Kassandra o'yinini o'ynamoq.

Kassandra (Cassandre) mabudlar Priam(Priam) va Gekub(Hecube)larning qizi bo'lgan. Unga mabud Appalon bashorat qilish qobiliyatini hadya qilgan, ammo go'zal Kassandra mabudning sevgisini rad etgan va oqibatda Appalon undan o'ch olish maqsadida uning barch abashoratlari yolg'onga chiqaradi va ushbu bashoratlarga hech qachon amalga oshmaydigan bo'lib qoladi. Keyinchalik “Kassandra”(Cassandre) atamasi siyosatda omadi yurishmagan va siyosiy bashoratlarga berilib ketgan ruhi tushgan siyosatchilarga nisbatan qo'llanila boshlangan. Ushbu frazeologik iboraning etimologiyasidan ham ko'rinib turibdiki, bu ibora asosan siyosatda pand yegan siyosatchiga nisbatan qo'llanilgan. Bunda “Cassandre”—asli afsonaviy mabuda hisoblansa-da, u bu iborada – omadi yurishmagan, ruhi tushgan siyosatchini ifodalaydi. Bundan ko'rinib turibdiki uning etimologiyasi qasman uning ma'nosiga bog'liq.

Tember de Charybde en Scylla–Silla va Xaribda orasiga tushib qolmoq.

Yomg'irdan qutilib do'lga tutilmoq.

Xaribda (Charybde)–Yer (ya'ni ma'buda), Geya(Gaia) va dengiz ilohi Posedon(Poseidon) qizi bo'lgan va Messin(Messine) darasidagi (bo'g'ozidagi) ulkan qoyatosh ustida yashagan. Ushbu afsonaviy bahaybat maxluq bo'g'ozga kelgan suzuvchilarni ov qilgan.

Ushbu Messin(Messine) bo'g'ozining boshqa bir qirg'og'ida ya'ni bir bahaybat olti boshli maxluq Silla(Scylla) har doim pistirmada turgan. Bechora dengizchi yoki suzuvchilar agar moboda Xaribdaning changalidan qutilishga muaffaq bo'lsalar baribir Silla tuzog'iga tushishgan. Etimologiyasidan ko'rinib turibdiki yuqoridagi bu ibora grek tiliga aloqador bo'lsada fransuz frazeologiyasida keng qo'llaniladi. Uning etimologiyasidagi ushbu ikki maxluq majoziy bo'lib, bunda “Charybde”—biron bir narsaga nisbat qilib olingan, masalan, o'zbek itlida unga nisbatan “yomg'ir” so'zi tog'ri keladi; “Scylla”—esa undan battarroq ya'ni “do'l”ga to'g'ri keladi.

O'zbek tilida ushbu frazeologik iboraning bir qancha ajoyib yangiliklari bor: Masalan; "Yomg'irdan qutilib, do'lga tutilmoq", "Suvdan qochib o'tga bormoq" kabi.

Partir pour Cythire–Seyterga jonamoq.

Yuqorida biz barcha afsonaviy qahramonlar haqida, ya'ni shaxslar haqida, ularning etimologiyasi haqida gapirdik, ammo bu iboramizda biz shaxs haqida emad balki makon, joy haqida so'z yuritamiz. Siter(Cythire)–mifologik(afsonaviy) makon bo'lib, bu grek oroli Peloponnes(le Pe'loponnise) va Kret(la Crite) orollari orasida joylashgan, u yerda mabuda Venera(Vinus)ning ulkan ibodatxonasi joylashgan edi. Ushbu orol ko'ngilxushlik va muhabbat timsoli osridagi joy bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki Cythire–muhabbat timsoli. Bu farazeologik ibora grek afsonasidan olingan bo'lib uning etimologiyasi o'z semantikasiga mos keladi ya'ni bu iboraning ma'nosi "muhabbat, sevgi lazzatga berilib ketish" yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak "sevgi deb dunyodan kechish" ma'nosiga to'g'ri keladi. Bu frazeologik iboraning etimologiyasi uning semantikasini tushunishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ze tonneau des Danaides–Danidlar bochkasi doimo yangilanadigan qarz.

Danaos–Libya(Zibye) hukmdori edi va uning elli nafar qizlari bore edi (les Danaides) uning akasi Ejeptos (Agyptos) ning esa ellikta o'g'li bor edi. Bir oz vaqtdan so'ng bu ikki aka-uak quad bo'lishadi. Lekin Danaos taxtni egallash maqsadida o'z qizlariga to'y kechasi turmush o'rtog'ini o'ldirishni buyuradi. Birgina qizi, Gepermenstra (Hypermnestre)dan boshqa barchasi o'z erlarini o'ldirishadi. Gepermenstra (Hypermnestre) yori Lense (Lyncee)ni juda sevar edi va shu bois u otasining hukmini bajarmaydi. Akalarining qatlidan so'ng u Danaos (les Danaides) larning barchasidan akalarining o'chini oladi, albatta o'z yori bundan holi bo'ladi. Opa–singil Danaidlar do'zaxda (Enfers) tubi yo'q bochkani to'ldirishga hukm qilinadi. Tubi yo'q bochkani to'ldirib bo'lmaganidek, har safar yangilanadigan qarzni ham to'lab bo'lmaydi. Chindan ham yuqoridagi misoldan ibora ma'nosi ya'ni semantikasi va uning kelib chiqishi ya'ni etimologiyasi bilan bog'liqligining guvohi bo'lamiz. Ya'ni bunda "le tonneau"–asl tarjimasi "bochka" bo'lsada, u ushbu iborada doimiy yangilanadigan qarzni ifodalasa, "les Danaides" esa – har doim ishlab

topganini yangilangan qarzga to'lovchi sifatida nomoyon bo'ladi. Ushbu ibora asli grek mifologiyasidan olingan bo'lsa-da, lekin fransuz tilida keng qo'llaniladi.

Se croire sorti de la cuisse de Jupiter

Haddan tashqari o'ziga bino qo'yish Dionisey (Dionysos) yoki Baxus (Bacchus)—mo'l-ko'lchilik, tabiat va shamol mabudi. U Zevs (Zeus) yoki (Jupiter) va Semple(Semple) farzandi bo'lgan. Mabuda Semele o'z yoridan kuchini qanchalik ekanini isbotini ko'rsatishni so'raydi. Shunda Zevs to'satdan ulkan yorug'lik va momaqalldiroq paydo qiladi, shu on ehtiyotsizlikdan uning rafiqasini yashin uradi Zevs faqatgina farzandi Dioniseyni asrab qolishga ulguradi xolos. Zevs uni o'zining soni orqasiga berkitib qoladi, Dioniseyga kelajakda ulg'aygandan so'ng tinchlik bermaslik uchun, uni ayblash uchun asrab qoladi. Ushbu iboraning yan bir fransuzcha ekvivalenti bor bo'lib u quyidagicha: “*se croire sorti de la co'te d'Adam*” bu iboraning ma'nosi ham aynan yuqoridagi frazeologik iboraning mazmuni bilan bir xildir. Bu ikki frazeologik iboralar ham etimologik jihatdan grek tiliga kelib taqaladi. Lekin shunday bo'lsada ushbu iboralar fransuz tilida kimdir o'z yordamini boshqa biror kishiga ta'na qilishi kabi vaziyatlarda, yoki o'zini boshqalardan yuqori qo'yadigan, hamda o'ziga bino qo'ygan kimsaga nisbatan ishlatiladi. Bu iborani etimologik tahlil qilar ekanmiz Zevs (Yupiter) Zeus (Jupiter)— kekkaygan, dimog'dor kimsa sifatida talqin qilinadi, bu kabi takabbur kimsalar hozir ham bo'lganidek, ushbu frazeologik ibora hali ham fransuz frazeologik lo'g'atida alohida o'ringa egaligi bilan ajralib turadi.

Etre dans les bras de Morphie—Morfe qo'lida bo'lmoq, uxlamq.

Morphee (Marfe)—Gepnos (Hypnos) ya'ni uyqu va Tun ya'ni Nuit (Nux) farzandi edi. U uyqu ilohi bo'lib, u bandalarni ko'knori gulini ularga tekkizib, uxlatib qo'yish qobiliyatiga ega edi.

Sortir des bras de Morphee—Morfe chiqmoq uyg'onmoq.

Yuqoridagi fraziologik iborada ta'kidlanganidek, Morfe (Morphee)—uyqu xudosidir. Ushbu har ikki iboradagi ilohiy mabud Morfening vazifasini ko'rsatuvchi bu iboralardan ham ma'lum bo'lyaptiki frazeologik iboraning etimologiyasi uning mazmun—mohiyatini tushunishga yanada yaxshi yordam beradi. Yana shuni ham

aytib o'tish kerakki uyqu ilohining nimi hozirda dorishunoslik atamolari orasida ham o'z o'rniga ega, ushbu atama tinchlantiruvchi va uxlatuvchi darmondori morfin (la morphine) nomiga erkin ko'chgan. Bu atama misolidan ham ko'rinib turibdiki bu so'z va uning kelib chiqishi orasida uzviy bog'liqlik mavjud.

Za boite de Pandore–Pandorra qutichasi Afsonalarga ko'ra Pandorra (Pandore) – dunyodagi eng birinchi ayol bo'lib, u Zevs (Zeus) tomonidan yaratilgandir. Uning nomi ya'ni “Pandore”, “barch asovg'a va hadyalar” degan ma'noni beradi. Mabudlar Pandoraga barcha balo-yu qazolarni o'zida saqlagan, muhrlangan quticha hadya qilishadi. Lekin u qiziquvchanligidan qutichani oschadi vauning ichida og'riqlar, kasalliklar, nizolar va boshqa barch ayomonliklar chiqib odamlarga tarqab ketadi. Pandora tezda qopqoqni qayta yopishga ulguradi, natijada Ishinch (l'Esperance) oxirida qolib ketadi. Chunki u juda shosholgan edi-da. Shundan buyon g'am-anduhlar insonlarni o'z domiga tortganda Ishonch(Umid) ularni yupatish uchun kelarkan.

Ushbu ibora ha grekn afsonalariga asoslangan bo'lib, u o'z etimologik jihatidan o'zi ifodalaydigan mazmun mohiyatga juda to'g'ri keladi. Ya'ni “la boite de Pandore”–ko'plab yovuzliklarga sabab bo'luvchi tahlika–xavf-xatardir.

“Pandore” so'ziga kelsak hozirda eskirgan so'z bo'lishiga qaramasdan so'ngi asr qo'shiq yozuvchilariga komik qahramon yartishda qo'l keladi.

Une victoire a la Pyrrhus–juda katta qiyinchiliklar bilan erishilgan g'alaba.

Perrus (Pyrrhus)–Epir (Ephire) shohi edi. U romanlar bilan juda ko'p urishgan edi. Ayniqsa Asulum (Ausculum) urushi juda dahshatlisi bo'ldi. Baxtga qarshi u ko'plab jangchilardan ayrildi, garchi keyinchalik g'alabaga erishgan bo'lsada lekin u Italiyani bosib olish chogida muvoffaqiyatsizlikka uchradi va o'z yerlarini tashlab ketishga majbur bo'ladi. Bu iborani etimologik tahlil qilar ekanmiz yuqorida aytib o'tilgan g'alaba (un victoire) chinakam g'alaba emas, aksinch mag'lubiyat nishonasidir, chunki bu g'alaba juda katta yo'qotishga sabab bo'ldi. Bu frazeologik ibora mazmunidan uning etimologiyasi va semantikasi orasidagi yaqinlikni yaqqol namoyish etadi. Bu fransuz frazeologik birligi o'zbek tiliga qiyinchiliklar bilan erishilgan salbiy g'alaba, ya'ni “oxiri voy ish” sifatida tarjima qilinadi.

Le supple de Tantale—Tantal jazosi Lidiya (Lydie) shohu Tantal bir qancha kesatiqlar bilan mabudlarni kamsitadi, haqorat qiladi, hattoki u ilohlarga xizmat qiluvchilarni ham fitnaga undaydi, bazimlardan birida u o'z o'g'li Pelosni qiymalab dasturxonga tortadi. Shundan so'ng uni jahannam hududlaridan biri bo'lmish Tortar (le Tortare)da to'g'ri yo'lga solish uchun jazolashadi. Uni iyagigacha suvga botirib qo'yishadi, uning boshida mevali shohlari bo'lib, u har safar qo'lini suvga cho'zib chanqog'ini qondirmoqchi bo'lganda suv shu shohlari tufayli loyqalanaveradi. Bu ibirani uning etimologiyasini bilmasdan turib tushunish ancha mushkuldir, ya'ni uning kelib chiqishi va mazmuni bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ya'ni bu iborani o'zbek tilida quyidagicha ifodalash mumkin: o'z niyatiga yoki hohishiga yetishiga bir bahya qolmoq, yoki yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak “qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmoq” ma'nolariga yaqin ma'noni ifodalaydi.

Atoqli otlar ishtirokidagi maqol va matallar semantikasi

Biz tadqiqot obyektimiz bo'lmish atoqli otli frazeologik iboralar maqolli turg'un birikmalar ham alohida ahamiyatga ega. Frazeologik qo'shilmalar ichida maqolli iboralar alohida o'rinda turadilar, aynan shu maqolli iboralarni tashkil etuvchi bo'laklarning ma'nosidan mahrum qilmasdan, shu so'zlarning xususiyatlarini o'zlarida mujassamlashtiradilar. Ayrim so'zlar bir qancha mustaqilliklarini saqlaydilar, biroq ularning ishlatilishi keskin chegaralangan va joylari belgilangan bo'ladi. Bu maqolli iboralar, odatda erkin so'z guruhlariga omonim bo'lib keladilar.

Atoqli ot qatnashagan maqolli iboralar yasalish nuqtai nazardan quyidagi turlarga bo'linadi:

b) Giperbola (mubolag'a) asosida qurilgan maqolli iboralar. Bunda so'z ma'nosi ko'z ko'rib quloq eshitmagan darajada oshadi, ya'ni kuchaytiriladi. Masalan:

vieux comme Adam – Adam (Odam ato) dek kekxa

Bu misolda ham metafora, ham mubolag'a mavjud.

long comme d'ici a Paques – juda uzoq (olis) manzil.

Bu misol ham xuddi oldingidek ikki taraflama stilistik bo'yoqlar bilan sayqallangan.

c) Pleonazmlar frazeologik qo'shilmalarning sistematik (ma'no) butunligi

ko'rsatishi mumkin, ayrim holda pleonazmlar antiteza (farazlarni qarama-qarshi qo'yish) asosiga qurilgan bo'ladi. Masalan:

Paris est le paradis des femmes et l'enfer des cheveux – Parij ayollarga jannat, otlarga esa do'zaxdir.

chacun pour soi (et) Dieu pour tous – har kim o'zi uchun, Xudo barcha uchun. (Bu misolda birlik ya'ni yakka shaxs va butun jamoa manfaatlari bir – biriga qarshilantirilgan).

d) Kalambur, ya'ni so'z o'yini asosida qurilgan frazeologik iboralar. Bir semantik butunlikni ifodalaydi. Bunda qandaydir musiqiy ohangdoshlik talaffuzda yaqqol sezilib turadi. Ya'ni maqolda musiqiylik bo'ladi. Ana shu musiqiylik maqolni boshqa guruhlardan ajratib turadi va bu uning muhim belgisi hisoblanadi. Misollar:

u que femmi veut, Dieu le veut – Ayol xoxishi, Xudo xoxishi.

la ou Dieu veut, il pleut – hammasi Xudoning irodasiga bog'liq.

Shunday qilib atoqli ot qatnashgan maqolli iboralar yuqoridagi uch guruhga xos maqollar bilan yasaliş nuqtai nazardan bo'linadi.

Maqolli iboralarning sistematik tahlili.

Maqollar xalq og'zaki ijodining eng nodir namunalaridan biridir. Har bir maqol o'ziga yarasha semantikaga ega. Biz tadqiqot o'tkazadigan atoqli ot ishtirok etgan maqolli iboralar semantik jihatdan bir nechta guruhlariga bo'linadi. Biz ushbu tahlilimizni umumiy frazeologik tahlilga xos tarzda bajardik va natijada quyidagi guruhlar hosil bo'ldi:

Shaxs nomlari ishtirokidagi maqolli iboralar:

Bu guruhga xos maqolli iboralar tarkibida asosan mashhur shaxslar ismlari, mabud va mabudalar nomlari hamda ularga bog'liq nomlar uchraydi. Misollar:

ami de Platon, mais plus encore de la verite – Platon mening do'stim, lekin haqiqat qimmatliroq.

faize comme saint Jean qui donnait le baptême sans l'avoir reçu – Ali desa Vali deydi.

Vieux comme Adam – Odam ato bilan teng (keksa).

c'est la chanson de Ricochet dont on ne voit pas la fin – eski hammom eski tos.

c'est Sain – Rock et son chien – bu ajralmas do'stlar.

(Xudo) so'zi ishtirokidagi maqolli iboralar.

Semantik tahlil qilish jarayonida so'zi bilan bog'liq maqolli iboralar miqdor jihatdan shaxs nomlaridan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Bundan ko'rinib turibdiki so'zi ishtirokidagi iboralar maqolli iboralarning katta bir qismini tashkil etadi. O'z nomidan ham ma'lum ushbu iboralarning asosiy qismi Xudo haqidan va Xudo bilan bog'liqdir. Misollar:

aux aundacieux Dieu prete la main – botirlarga Xudo madadkor. (Ushbu fransuz maqolining o'zbek tilida quyidagicha ekvivalent bilan ham almashtirish, o'zgartirish mumkin: Sendan harakat – Mendan barakat.)

u que femme veut, Dieu le veut – Ayol xohishi, Xudo xohishi.

chacun pour soi (et) Dieu pour tous – Harkim o'zi uchun, Xudo barcha uchun.

Dieu ne veut pas la mort du pecheur – Xudo gunohkorni kechirguvchi.

la ou Dieu veut, il pleut – Hammasi Xudoning irodasiga bog'liq.

Shahar nomlari ishtirokidagi maqolli iboralar.

Umuman olganda shahar va davlat nomlari frazeologik iboralarning barcha guruhlarida ishtirok etgan va o'ziga yarasha ma'no va mazmunga ega. Biz tadqiq qilayotgan obyekt maqolli iboralar tarkibida asosan *Paris, (Parij); Rome (Rim); Naples (Neapol); Mecque (Makka)* kabi mashhur shahar nomlari ko'p uchraydi. Misol uchun *Rome (Rim)* shahrini olaylik, ushbu shahar hozirgi Italiya poytaxti hisoblanadi. Bu shahar qadimda silivizatsiya va shaharsozlik o'chog'i hisoblangan va barcha Rimga oshiqqan. Rim ulkan imkoniyatlar shahri va ramzi hisoblangan. Shuning uchun ham “Barcha yo'llar Rimga olib boradi” maqoli yaratilgan. Misollar:

tout chemin va (mene)a Rome – Barcha yo'llar Rimga olib boradi.

voir Naples et mourir – Bir ko'rsam armonim yo'q.

menez un ane a la Mecque, vous n'en ramenez jamais qu'un ane – qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi. (O'zbek tilida maqolning yana bir tarjima variant bor:

Ko'r ko'rni qorong'ida topadi.).

Paris ne s'est pas fait en un jour – Parij bir kunda qurilmagan. (Oz-oz o'rganib dono bo'lir, qatra qatra yig'ilib daryo bo'lur).

Paris est le paradis des femmes et l'enfer des cheveux – Parij ayollar uchun jannat, otlar uchun do'zax. (Bu maqol ko'p sarf – xarajat, isrofgarchilik haqida).

Garde (toi) d'un garçon ou Normand, l'un habile trop et l'autre ment – yolg'onchi va olibqocharlardan saqlan(ing). (Ushbu maqol semantikasiga e'tibor bersak Fransiyada *Gascon (Gaskonlik)* atamasi – yolg'onchilik va maqtanchoqlik *Normand (Normandiyalik)* esa safсатаboz ko'p gapiruvchi shaxslarga nisbatan ishlatiladigan ushbu ikki o'zshatish jamlanmasidan shu maqol yaralgan.

Bayram nomlari ishtirokidagi maqolli iboralar.

Maqolli iboralar tarkibida bayram nomlari boshqa atoqli otlarga nisbatan kam uchraydi. Asosan Yevropa xalqlariga xos va katolik diniga sig'inuvchilar bayramlari nomlari uchraydi. Shulardan eng mashhuri *Pasxa (Paques)* bayramidir. Bu so'z ishtirokida ko'plab maqolli iboralar yaratilgan va bu aprel oyida nishinlanadigan bayram nomi qaysidir ma'noda maqolli ibora mazmuniga ham bog'liq. Misol:

long comme d'ici a Paques – Juda olis manzil. Odam oyog'i yetmas manzil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

3. Актуальные проблемы фразеологии. – Ответственный редактор А.М.Бушуй. – Самарканд: СамГУ, 1998.–101 с.
4. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л. ЛГУ, 1963. – 208 с.
5. Арнольд И.В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность. – СПб: Изд-во С. Петерб. ун-та, 1999. – С. 242-243.
6. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: ИИЛ, 1961. – 394 с.
7. Бокадорова Н.Ю. Французская лингвистическая традиция XVIII начала XIX в. Структура знания о языке. – М.: Наука, 1987. – С. 102-103..
8. Болотнова Н.С. О некоторых особенностях и новых направлениях стилистических исследований художественной речи в конце XX в. //Русистика: Лингвистическая парадигма конца XX века. – Спб., 1999. – С. 120-123.
9. Бушуй А.М. Этюд о словарной репрезентации фразеологии // Studia Russica.–XIII. – Budapest, 1989. – С. 91-111.
10. Бушуй Т.А. Основы теории контрастивной лексикографии (в ракурсе фразеологии). – Ташкент: Фан, 2001. – С.118-126.
11. Бушуй Т.А. Принципы группирования фразеологических единиц в контрастивном лексическом словаре // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 1999. -№3. – С. 33-34.
12. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил курилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007. –Б.103.
13. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избр. труды, т. 3. –Лексикология и лексикография. – М., 1977. –С. 64-98.
14. Гак В.Г. Беседы о французском слове.– М.: МО, 1966. – С.241-242;
15. Гак В.Г. Лингвистические словари и экстралингвистическая информация // Вопросы языкознания. – М., 1987. – №2. – С. 10;
16. Гак В.Г. О новейших работах по французской лексикографии //

- Филологические науки. – М., 1968. - № 6. – С. 109-110.
17. Исмоилов С.И. Система обращения как сравнительно-топологическая проблема.//Тил системаси ва ҳозирги замон лингводидактикаси: Республика илмий-амалий анжумани. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2011. – Б. 257-259.
18. Кунин А.В. Английская фразеология. - М.: ВШ, 1970. – 344 с.
19. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: ВШ, 1986. – 336 с.
20. Коммуникативно-прагматические аспекты фразеологии / Отв. ред. Н.Ф.Алифиренко. – Волгоград: Перемена, 1999. – 203 с.
21. Маматов А.Э. История и теория языковой нормы.-Шымкент,2006.-96 с.
22. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. - М.: ВШ, 1987.-288с.
23. Насруллаева Н.З. Фразеологическая образность как объект перевода//Таржима назарияси ва муаммолари. – Тошкент: УзДЖТУ, 2006. – С. 85-86.
24. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. Тошкент – 1992, -378 б.
25. Ройзензон Л.И. Лекции по общей и русской фразеологии. - Самарканд: СамГУ, 1973. – 223 с.
26. Росс Эшби У. Введение в кибернетику. – М.: Наука, 1959. – С.109.
27. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. -Б.21.
28. Сувонова Н.Н. Француз тилидаги хасислик ва сахийлик маъносидаги фразеологик бирликларнинг ўзига хос айрим хусусиятлари // Хорижий филология. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2002. № 4.– Б. 19-21.
29. Сувонова Н.Н. Француз фразеологиясида икки режалилик ва унинг ўзига хос айрим хусусиятлари // Ҳозирги дунё лисоний қиёфаси ва тилшуносликнинг методологик асослари: Республика илмий-амалий

- анжумани. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – Б. 105-106.
30. Умбаров Н., Ҳамроқулов Г. Ҳозирги замон француз тили лексикологияси. Тошкент, «Ўқитувчи», 1996. – Б. 72.
31. Цоллер В.Н. Эмоционально-оценочная энантиосемия фразеологизмов // Филологические науки. – М., 2000. – № 4. – С. 56-57.
32. А.Ҳожиев. Лингвистик терминларнинг изохли луғати, -Тошкент, 1985. – 144 б.
33. Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. – М., ВШ, 1970. – С. 75, 87, 98.
34. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: ВШ, 1969. – 342 с.
35. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. – 511 б.
36. Bentolila F. “Car” en français écrit // Linguistique. – Paris, 1986. – Vol. 22, fasc. 2. – P. 95-115;
37. Bushuy Tatyana. Umumiy tilshunoslik. – O’quv – qo’llanma . – Samarqand : SamDCHTI, 2002. – 50 b.
38. Clatigny M. La place des adjectifs épithètes dans deux œuvres de Nerval // ”Le français moderne”. – Paris, 1973. N3. – P. 213-232;
39. Forest R. Sémantisme entelechique et affinité descriptive: Pour une analyse des verbes symétriques ou neutres du français // Bull de la Soc. De ling. De Paris. – 1988. – T. 83, fasc. 1 – P. 137- 162.
40. Fradin B. Décrire un verbe // Lexique. – Lille, 1988. – P. 117-11

2. Lug’atlar:

1. Dictionnaire des œuvres littéraires de la langue française en quatre volumes. – Paris, 1994. – 2158 p.
2. Dictionnaire ouzbek - français. – Paris, 2001. – 321 p.
3. Genouvrier E., Desirat C., Horde T. Dictionnaire des synonymes. – Paris, 2001. – 743 p.

4. Godefroy F. Dictionnaire de la langue française classique. 8 éd. I-III. – Paris, 1998-2000. – 750 p.; 784 p.; 851 p.
5. Hachette. Dictionnaire encyclopédique en couleur. –Paris,1997.–2066 p.
6. Larousse. Dictionnaire des difficultés de la langue française. – Paris, 1992. – 435 p.
7. Le petit Larousse illustré. – Paris, 2001. – 1786 p.
8. Le Robert. Dictionnaire historique de la langue française en deux volumes. – Paris, 1995. – 2400 p.
9. Nouvelle encyclopédie Bordas en dix volumes.– Paris, 1990.–6096 p.
10. Larousse. Petit Larousse en couleurs.–Paris,Libr.Larousse,1988.–1920 p.
11. Rey A., Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. -Nouv. ed. rev. et augm. – Paris, 1984. –1035 p.
12. Французско-русский фразеологический словарь / В.Г.Гак и др. /Под ред. Я.И.Рецкера. – М.: ГИИНС, 1963. –1112 с.

INTERNET MANBAALARI:

1. www.Wikipedia.fr
2. www.Lingvofrench.org
3. www.fraseologie-franciase.fr
4. www.DictionnaireDeLaZone.fr
5. www.rumetrika.rambler.ru